

NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH ILMIY ASOSLARI

Zayniddinova Ominaxon

Toshkent shahridagi Kimyo xalqaro universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga oid tadqiqotchilarning fikrlari tahlil etilgan. Shu bilan birgalikda, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning samaradorligi hamda uning amaliyotdagi ahamiyati o'rganib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, davlat byudjeti, byudjetlararo munosabatlar, byudjetni rejalashtirish.*

Kirish

Mamlakatimizdagi iqtisodiy o'zgarishlar hamda ma'lum bir yo'nalish sohalarida olib borilayotgan islohatlar yurtimiz kelajagi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu borada yurtboshimizning iqtisodiyot sohasida olib borayotgan tashabbuslari O'zbekiston Respublikasi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" da o'z aksini topgan. Bularning ichida iqtisodiyot sohasi uchun ham maqsadlar belgilab olinib, amalga oshirish uchun maxsus parametrlar ko'rsatilgan va buni "Taraqqiyot strategiyasi"ning 21-maqsadida ko'rishimiz mumkin.

Taraqqiyot strategiyasining 21-maqsadiga ko'ra Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash. Har bir tuman budjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar budjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish. Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash [1]. Bu yerda iqtisodiyotimizning rivojlanishi uchun hamda barqarorlikni taminlash inflatsiya darajasini bosqichma bosqich tushirish hamda aholining takiflari asosida dolzarb muammolarni yechishga e'tibor qaratilgan. Iqtisodiyotimizda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish orqali aniqlilik va yillar kesimida aniq raqamlar asosida

xarajatlar hamda daromadlarning aks etishi natijasida kelgusi yillar uchun pragnoz qilish imkoniyati tufayli byudjet pul mablag'lari tog'ri sarflanishi hamda samaradorlikga erishish mumkin bo'ladi bu borada olim hamda professorlarning o'z fikrlari bilan tanishib chiqamiz.

Adabiyotlar sharxi

Rossiyalik tadqiqotchi Olga Vladilenovna, shunday deb ta'kidlaydiki "Eng umumiy shaklda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish (NYB)-bu rejalashtirilgan (amalg oshirilgan) byudjet xarajatlari va kutilayotgan (erishilgan) natijalar o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi byudjetni shakllantirish (bajarish) tizimi. Ushbu byudjet modelining maqsadi sarflangan resurslar va olingan to'g'ridan-to'g'ri va ijtimoiy natijalarning muvofiqligini nazorat qilish, byudjetdan moliyalashtiriladigan muayyan faoliyat turlarining ahamiyati va iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholashdir. Eng umumiy shaklda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish-bu rejalashtirilgan (amalg oshirilgan) byudjet xarajatlari va kutilayotgan (erishilgan) natijalar o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi byudjetni shakllantirish (bajarish) tizimi. Byudjetlashtirishning ushbu modelining maqsadi sarflangan resurslar va olingan to'g'ridan-to'g'ri va ijtimoiy natijalarning muvofiqligini nazorat qilish, moliyalashtiriladigan muayyan faoliyat turlarining ahamiyati va iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholashadi" [2]. O'zbek olimlaridan Komiljon Ernazarov ta'kidlashicha, NYB – byudjetni tuzish, ijro etish va uni nazorat qilish uslubi bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos tarzda strategik maqsadlarga erishish uchun natijalarga erishishni talab etuvchi byudjetlashtirish jarayonini o'zida aks ettiradi. Bizningcha, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish uslubini joriy etishda sohalar kesimida mamlakatni rivojlantirishning strategik natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Bu esa, mazkur ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan baholanadigan va taqqoslanadigan mezonlar asosida joriy etilishini talab etadi. Ko'rsatkichlarni baholashga imkoniyat yaratilishi byudjet xarajatlarini yo'naltirishga imkon bersa, taqqoslash natijalarning qanchalik ijobiy/salbiy ekanligini aniqlashga shart-sharoit yaratadi [2].

Byudjetni rejalashtirish boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, davlat pul mablag'larini tashkil etish, taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish jarayonlarini rejali boshqarishdir" degan umumiy qarashlar mavjud. Byudjetni rejalashtirish bosqichi boshqarishning barcha bosqichlaridagi eng muhim bosqichdir, byudjetni rejalashtirishda byudjet daromadlarining manbalari, xarajatlarning yo'nalishlari aniqlanadi. Davlatning ijtimoiy-siyosiy vazifalari moddiy ko'rinishga keltiriladi va boshqaruv organlariga ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar yuklanadi [3]. Bozor iqtisodiyoti o'ta murakkab va uyushgan ijtimoiyiqtisodiy tizim sifatida alohida sifatli moliyaviy

rejalashtirishni talab qiladi. Chunki, barcha salbiy oqibatlar va xatolar uchun byudjet tashkilotining o'zi moliyaviy holatining yomonlashuvi bilan javobgar bo'ladi" [4].

A.Li byudjetni rejalashtirish to'g'risida o'zining ko'plab ilmiy xulosalarini keltirib o'tadi. Davlat byudjetining roli daromadlar va xarajatlarning boshqa barcha balanslari, smetalar, moliyaviy rejalar, shuningdek, A.Linkolnning "davlatning qonuniy maqsadi – insonlar jamiyati uchun zarur bo'lgan barcha ishlarni, ularni bir shaxs sifatida yoki birgalikda umuman uddasidan chiqa olmaydigan yoki maromida bajara olmaydigan faoliyatni bajarishdan iborat" degan fikrini keltirib o'tadi [5].

Q.Usmonov esa, byudjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyati to'g'risida to'xtalib, hozirgi kunda byudjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligini ilgari suradi [6].

T.Malikov, O.Olimjonovlarning fikricha "Byudjetlararo munosabatlar – davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida munosabatlardir" [7].

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagan hollarda:

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 va undan ortiq foizi miqdoridagi xarajatlarni qisqartirish Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan;

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 foizidan kkjram miqdordagi xarajatlarni qisqartirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taklifiga ko'ra Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining xarajatlarini qisqartirish bo'yicha qarorlar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi. Budjetlar xarajatlarini qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag'larini oluvchilarning budjet mablag'larini o'zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni kamaytirish O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. [8].

Asosiy qism

Ta'lim muassasalarida ommaviy moliyalashtirishning bir qismi ta'limga sarflanuvchi xarajatlarni rag'batlantirish orqali yoki talaba orqali yo'naltiriladi. Davlat tomonidan oliy ta'lim muassasalariga ularga ajratiluvchi mablag'larni sarflashda qanchalik ko'p erkinlik beriladigan bo'lsa, "kirish bo'yicha" moliyalashtirish texnologiyasi keng qo'llanadi. Oliy ta'lim muassasalariga kirgan talabalar sonini hisobga olib, "kirish bo'yicha" moliyalashtirish uslubidan foydalanish shunga ham olib keladiki, oliy ta'lim muassasalari qabul qiluvchi qarorlar zamonaviy sharoitda mehnat bozorining ishchi kuchi talablariga teskari bo'lib, bunda oliy ta'lim muassasalari va mutaxassisliklarining bir xilligi yuzaga keladi. "Xarajatlar bo'yicha" moliyalashtirish mexanizmlarining ko'pchiligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish rag'batlarini ta'minlay olmaydi. Agar davlat ta'lim faoliyatining faqat turlari bo'yicha mablag' ajratadigan bo'lsa, bu mablag'lar ta'lim sifatini oshirishga sarflanishi yoki ta'lim muassasalari resurslarini taqsimlashning eng yaxshi yo'llarini izlab topishini kafolatlamaydi. "Natijalar bo'yicha" moliyalashtirish usuli ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash samaradorligiga asoslanadi [9].

"Xarajatlarni boshqarish" texnologiyasida byudjet xarajatlari kutilayotgan natijalar bilan asoslanmaydi, xato va kamchiliklar, byudjetni boshqarish muammolari haqiqiy va rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiq nazoratni amalga oshirishda ko'rinadi. Ta'kidlash kerakki, rejalashtirishning bunday tizimida byudjet mablag'lari ustuvorligi va samaradorligini baholash vazifasini bajarishda yoki byudjet mablag'lari xarajatlari yo'nalishlarini aniqlashda qiyinchiliklarning kelib chiqishi mumkin, mazkur texnologiya byudjet jarayonini isloh qilish maqsadida innovatsion qarorlarni qabul qilishga va samarali byudjetni tuzishga umuman imkoniyat bermaydi. "Byudjet jarayonini isloh qilish maqsadida davlat siyosatining ustuvorlariga muvofiq, "natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish" bilan davlat moliyasini samarali boshqarishga sharoit yaratiladi [10]".

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq. Byudjet hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerak" [12].

Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish shartlari va maqsadlarini quyidag tamoyillar bilan asoslash mumkin:

- Barqaror iqtisodiy o'sish va uni o'rta muddatli va uzoq muddatli kelajakda quvvatlash zaruriyati;
- Daromadlar olish yoki xarajatlarni amalga oshirish prognozidan og'ish riskini boshqarish tamoillarini belgilash;

- Ma'qullangan xarajatlarga oid yangi majburiyatlar byudjetni samarali ijro etish uchun javobgarlikni belgilashga asos sifatida aniq bo'lishi uchun o'rta muddatli rejalashtirish va byudjet jarayoni mushtarak bo'lish omili;
- Mavjud resurslarga va xarajatlarga oid talablarga baho berishda asos bo'ladigan axborot oqimlarining ishonchliligi va o'z vaqtida olinishi;
- Byudjetni o'rta muddatlarga rejalashtirish jarayoni xarajatlarga oid yangi majburiyatlar uchun dasturlarni tanlashning strategik doirasini ta'minlashi va bu majburiyatlarning mamlakatni rivojlantirish strategiyasi hamda unga erishish maqsadlari bilan aloqasini o'rsatishi lozimligi;
- Soliq kodeksini yangi tahrirda hamda o'rta muddatli kelajakka mo'ljallangan soliq siyosati kontseptsiyasini qabul qilish doirasida soliq tizimini barqarorlashtirish. O'rta muddatli byudjetlashtirish jarayoni xarajatlarga oid yangi majburiyatlar uchun dasturlarni tanlashning strategik doirasini ta'minlashi va bu majburiyatlarning mamlakatni rivojlantirish strategiyasi hamda unga erishish maqsadlari bilan aloqasini ko'rsatishi lozim. O'rta muddatli byudjetlashtirish siyosat, strategiya va byudjetdan mablag' ajratishni birlashtirishga harakat qiladi. U strategiyalar o'rtasida ham, mazkur strategiyalar doirasida ayrim majburiyatlar o'rtasida ham, moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar, murosa yo'llarini qidirishi kerak [13].

“Davlat byudjeti tizimini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda jahonda tan olingan ilg'or tajribalarni milliy iqtisodiyotimiz uchun foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, davlat byudjetining o'rta davr uchun rejalashtirish amaliyotini chuqur o'rgangan holda tahlil etish asnosida milliy rivojlanish modelimizga tatbiq etish davlat moliyasini isloh etish sohasidagi muhim masalalardan biri bo'lmoqda. Albatta, o'rta muddatli byudjet amaliyoti joriy etish murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda davlat byudjeti tizimi va tuzilmasida, shuningdek, byudjet siklida ham bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga olib kelishi tabiiy holdir. O'rta muddatli byudjetlashtirish amaliyotini ishlab chiqishning ilk qadamlaridan biri bu – byudjet davri va byudjet yilini mazkur amaliyotni joriy etish uchun moslashtirish sanaladi” [14]. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish o'rta muddatli byudjetlashtirish ko'proq samara beradi.

Xulosa

Davlatimizning yanada rivojlanishi hamda yuksalishi uchun iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarning o'sishi hamda shu bilan bog'liq islohtlarning samarali olib borilishi muhim hisoblanadi. Davlat byudjeti mablag'lari hamda ularning sraflanishi hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ma'lum bir yo'nalishlarning belgilanishi dasturlar hamda yangi jahonda qo'llanilayotgan metodlarning mamlakatimizda ham

qo'llanishi samara beradi bu borada natijaga yo'naltirigan byudjetlashtirish asosida iqtisodiyotimiz rivoji uchun muhi omiildan biri bo'lib hisobalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ў. Р. п. Ш. Мирзиёев, «2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA,» 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. к. э. н. МАКАШИНА О.В., «Вестник ИГЭУ», р. 1, 2008 г.
3. Э. К. Юлдашалиевич, «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali., т. № 4, 2020yil.
4. W. V. S. , « ,» The basis of municipal office organization Feniks. , т. 351–35, 2008.
5. Золотарёв С.Н., «Зарубежный опыт бюджетирования как метод финансового планирования,» «Финансы»М., т. №1, pp. 69-70, 2009.
6. 3. Ли.А.Н, «Мамлакат иктисодиётини ривожлантиришда давлат бюджетининг роли,» Молиячи маълумотномаси журнали, т. 12, № 60, pp. 12-14, 2016.
7. «Usmonov Q.A. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari,» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 4, 2014 y.; , № № 4., 2014y.
8. О. О. T.S. Malikov, «Iqtisod-Moliya»,» p. 800b, 2019y.
9. 2.-Y. U. O. R. D. B. TO'G'RISIDA, «9-modda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi barqarorligini ta'minlash,» в <https://lex.uz/uz/docs/-6333240>, 30.12.2022 yildagi O'RQ-813-son.
10. Л. А.М., «Среднесрочное бюджетирование, ориентированное на результаты: международный опыт и российские перспективы,» «Финансы», т. №3, pp. 5-10, 2007.
11. Э. А. Эмиров Н.Д., «Системная модель инновационного управления социальной сферы. Монография,» «Прспект», 2017., р. 144, 2017.
12. Ў. Р. п. Ш. Мирзиёевнинг, «Олий Мажлисга Мурожаатномаси,» 2018.
13. «Ли А.Н. Возможности использования БОР для местных бюджетов,» 2014.
14. А. Б. Аллакулиев, «ЎЗБЕКИСТОНДА ЎРТА МУДДАЛИ БЮДЖЕТЛАШТИРИШНИ ЖОРИЙЭТИШДА БЮДЖЕТ ДАВРИ (ЦИКЛИ)НИ ҚАЙТА ШАКЛЛАНТИРИШВА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИВА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИВА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ,» в «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» Ilmiy elektron jurnali, 2019.